PRESS-RELIZ **28.10.2026**

Samarqand viloyatida pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish sinovlari boshlandi Mamlakatimizning barcha hududlarida pedagoglarning kuzgi attestatsiyasi boshlanishi munosabati bilan, Samarqand shahridagi Bilimlarni baholash markazida umumiy o‘rta ta’lim maktablari pedagog kadrlarining navbatdagi attestatsiya sinovlariga rasman start berildi

Joriy yil kuzgi attestatsiya sinovlarida ishtirok etish uchun **jami 34 068** ta ariza kelib tushgan bo‘lib, shundan **25 997** tasi qabul qilingan. Hozirda arizalari qabul qilingan pedagoglar belgilangan jadval asosida sinov jarayonlarida faol ishtirok etmoqda.

Sinovlarning ilk kunida informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilari o‘z bilim va kasbiy salohiyatini sinovdan o‘tkazdi. Ushbu yo‘nalishda **704** nafar pedagog ishtirok etdi.

Kuzgi pedagoglar attestatsiyasida qatnashishi uchun eng ko‘p ariza bergan yo‘nalish boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari bo‘lib, ularning soni **6 674** tani tashkil etadi. Eng kam hujjat topshirgan yo‘nalish esa yapon tili bo‘lib, bu fandan **1** nafar pedagog attestatsiya sinovlaridan o‘tish uchun ariza topshirgan.

Attestatsiya jarayonlarini tartibli va samarali tashkil etish, ishtirokchilar uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga alohida e’tibor qaratilgan.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda viloyat o‘qituvchilarining sifat tarkibi yildan-yilga o‘sib bormoqda. Statistik ma’lumot va foizli tahlil (2026 yil 1 iyul holatiga):

Samarqand viloyati umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan jami 64 008 nafar pedagoglarning toifalar bo‘yicha foizli taqsimoti:

- **Oliy toifali pedagoglar: 7 720 nafar (jami pedagoglarning 12,1%)**
- **Birinchi toifali pedagoglar: 12 124 nafar (jami pedagoglarning 18,9%)**
- **Ikkinchi toifali pedagoglar: 14 512 nafar (jami pedagoglarning 22,7%)**
- **Mutaxassis pedagog xodimlar: 22 184 nafar (jami pedagoglarning 34,7%)**
- **O‘rta maxsus ma’lumotli pedagoglar: 7 468 nafar (jami pedagoglarning 11,7%)**

Attestatsiya jarayonlari pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish hamda ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

OAV murojaat uchun: B.Karshiyeva 97-922-08-40

Matbuot xizmati